

## YOSHLARDA TOLERANTLIK QADRIYATINI SHAKLLANTIRISH - SIFATLI TA'LIM-TARBIYA POYDEVORI

**Baymatov Alisher Kaxramonovich**

Termiz Davlat Pedagogika instituti

“Falsafa va ma’naviyat asoslari” kafedrasи o‘qituvchisi

E-mail: [alisher@terdipi.uz](mailto:alisher@terdipi.uz)

### ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda demokratik yangilanish jarayoni har bir fuqarodan ijtimoiy munosabatlarda ma’naviy-axloqiy, siyosiy jihatdan barkamollikni, jamiyatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va madaniy tamoyillar asosida ish yuritishni taqozo etadi. Qolaversa, bozor iqtisodiyoti qoidalarini ijtimoiy munosabatlarga kirib borishi aholining yuksak ma’naviy tayyorgarligini, zamonaviy texnologiya va milliy qadriyatlarning uyg‘un holda jamiyat hayotiga singdirish vazifasini qo‘yadi. Shu boisdan ham ko‘p millatli va turli dirlarga e’tiqod qiluvchi xalqimiz oilaviy turmushida bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirish mamlakatni modernizatsiya qilish masalasi bilan bog‘liqdir. Maqolada yoshlar orasida bag‘rikenglik qadriyatini shakllantirishda oilaning o‘rni va sifatli ta’lim-tarbiya berish jarayonidagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

**Kirish so‘zlar:** bag‘rikenglik, oila, «Xalqaro do‘stlik kuni», «Bag‘rikenglik tamoyillari», tolerantlik madaniyati, «oilaviy modernizatsiya»

### АННОТАЦИЯ

Процесс демократического обновления в нашей стране требует от каждого гражданина быть нравственно, этически и политически совершенным в общественных отношениях, действовать на основе современных общественно-политических и культурных принципов во всех сферах общественной жизни нашего общества. Кроме того, проникновение норм рыночной экономики в общественные отношения ставит задачу внедрения в жизнь общества высокой нравственной готовности населения, современных технологий и национальных ценностей. Именно поэтому формирование культуры толерантности в семейной жизни нашего многонационального и религиозного народа связано с вопросом модернизации страны.

**Ключевые слова:** толерантность, семья, «Международный день дружбы», «Принципы толерантности», культура толерантности, "модернизация семьи"

## ABSTRACT

The process of democratic renewal in our country requires every citizen to be morally, ethically and politically perfect in social relations, to act on the basis of modern socio-political and cultural principles in all spheres of the social life of our society. In addition, the penetration of the rules of the market economy into social relations sets the task of instilling the high moral readiness of the population, modern technology and national values into the life of the society. For this reason, the formation of a culture of tolerance in the family life of our multi-ethnic and religious people is related to the issue of modernization of the country.

**Keywords:** tolerance, family, “International Friendship Day”, “Principles of Tolerance”, a culture of tolerance, “family modernization”.

Demokratik islohotlarni amalga oshirish sharoitida oila bunyodkorlik ishining markaziy instituti hisoblanadi. Chunki oila jamiyatning muhim tarkibiy qismi sifatida ma’naviy-axloqiy jihatdan shaxsning ijtimoiylashuv funksiyasini bajarib, davlat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga jiddiy ta’sir eta oladi. Bag‘rikenglik qadriyatini biz tadqiqot ishimizda o‘zbek xalqiga xos va mos milliy an’anaviy qadriyat sifatida asrlar osha mehr-oqibat, saxovatpeshalik odatlarida o‘sib shakllangan tipik munosabat shakli sifatida milliy madaniyat doirasida ijtimoiy - falsafiy tahlil etishni ko‘zladik. Darhaqiqat, o‘zbek xalqi turmush tarzida bag‘rikenglik o‘ziga xos milliy madaniyatning yadroси sifatida shakllanganki, ilmiy adabiyotlarda haligacha qiyosiy ilmiy tadqiq etilmagan. Zero milliy bag‘rikenglik shakllanishini umuminsoniy qadriyatlar bilan solishtirish orqali yangi ilmiy ma’lumot va ijtimoiy taraqqiyot yechimlarini topish mumkin deb hisoblaymiz.

Biz jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bagrikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettiramiz. Bu borada 30 iyul - «Xalqaro do‘stlik kuni» munosabati bilan yurtimizda birinchi marta «Do‘stlik haftaligi»ni va «Do‘stlik» xalqaro forum-festivalini o‘tkazishni taklif etaman. Mamlakatimizda «jaholatga qarshi - ma’rifat» degan ezgu g‘oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do‘stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ‘ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo‘lib qoladi.[1. 43-bet]

Bag‘rikenglik madaniyatining milliy oilaviy qadriyat sifatida talqin etish ehtiyoji quyidagi omillar bilan izohlanishi mumkin. Eng avvalo, milliy g‘oyaning komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi o‘ta muhim tamoyillarining ma’naviy-siyosiy tarbiyada tutgan o‘rni beqiyosdir. Zero Abdurauf Fitrat “...Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e’tibor kerak bo‘lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizga shu usul va qoidalar asosida tarbiya qilmog‘imiz lozim... Axloqiy tarbiya-odam axloqini kamolga etkazish

demakdir, ya’ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe’li va amali o‘ziga ham, boshqalarga ham foyda keltiradigan bo‘lsin”-deya murosa falsafasining zaruriyatini ta’kidlab o‘tgan edi.[2. 45-bet] Eng avvalo, oilaviy bag‘rikenglik o‘zbek xalqida ona zamin, tuproq bilan bevosita bog‘langan. Chunki o‘zbek oilasi qadimdan oilada dehqonchilik bilan kun kechirgan, oilaning barcha a’zolari yerga ishlov berish orqali xo‘jalik yuritgan. Bu hol o‘zga millat va dindagilarga ochiq ko‘ngillilik, begonalarga mehr-oqibatlilik tuyg‘usini shakllantirgan. **Ikkinchidan**, bag‘rikenglik milliy-diniy qadriyat sifatida har tomonlama yaqqolroq oilaviy munosabatlarda o‘zini namoyish etishi va jamiyat hayotiga ma’naviy madaniyat sifatida ommalashtirishi mumkin. **Uchinchidan**, bag‘rikenglik qadriyatini oilaviy sharoitdagi tahlili oddiy va oson ko‘rinsada, pedagogika yo‘nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni yodda tutgan holda haligacha ijtimoiy-gumanitar fanlarda ilmiy tadqiqot ishlari etarli darajada olib borilmaganligini tan olish joizdir. Bag‘rikenglik oilada farzandning talim-tarbiyasida dunyoqarashini shakllantiradi, hayotga, yashashga bo‘lgan munosabatlarda asosiy tamoyil bo‘lib qoladi. Chunki, oila davlat va jamiyat bag‘ridagi shaxsning jismoniy va ma’naviy shakllanishining muhim ijtimoiy makonidir. Ayniqsa, milliy g‘oyaning ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik, komil inson g‘oyalari bevosita, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi tamoyillarini bevosita tarbiyalashning o‘ziga xos maktabidir. Jamiyat va shaxs munosabatlarda oila davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari va manfaatlarini atroflicha uyg‘unlashtirgan ijtimoiy institutdir.

Oilaning ijtimoiy-madaniy tahlili bag‘rikenglik atamasining ta’rifini oilaga nisbatan ishlatishga qulay variant shaklida ishlab chiqish ehtiyojini tug‘diradi. Chunki, bag‘rikenglik millatga xos qadriyat bo‘lib, tarixiy ma’naviy-madaniy ne’mat, xalq milliy ma’naviy fazilatlarini alohida bir ijtimoiy shaklidir. Tolerantlik madaniyatini shakllantirish bobida jahon hamjamiyatni bir qator say-harakatlarni faol amalgalashmoqda. 1995-yil YuNESKO tomonidan «Bag‘rikenglik tamoyillari» Deklaratsiyasini qabul qilinishi, MDH va boshqa davlatlarda tolerantlik milliy institutlari tashkili va milliy dasturlar qabul qilinishi kabilar fikrimizni dalilidir.[3.7-bet]

Darhaqiqat, tolerantlik madaniyatni eng zamonaviy umumbashariy muammo bo‘lib demokratik jamiyatning yashash mezoni, ma’rifiyligini belgilovchi omildir. Davlatlar va ularning turli irq, millat, din va kasb-korlarga ega fuqarolari o‘rtasida ijtimoiyadolat, qonun ustuvorligi asosida har biriga munosib turmush shart-sharoitlarini ta’minlash kundan-kunga og‘irlashib bormoqda. Shu boisdan Deklaratsiyada bag‘rikenglikka “...bizning dunyomizdagi turli madaniyatlarni, o‘zini ifodalash va insonning alohidligini namoyon qilishning xilma- xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq

muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli tumanlikdagi birlikdir. Bu faqat ma'naviy burchgina emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag'rikenglik- tinchlikka erishishni musharraf qilguvchi va urush madaniyatsizligidan tinchlik madaniyatiga eltuvchidir.”[ 3.7-bet ] deb tariflanadi.

Bag'rikenglik qadriyatini an'anaviy o'zbek oilasining milliy ma'naviy madaniyati ekanligini zamonaviy g'arb oilasi bilan qiyosiy tahlili bizga quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Eng avvalo, oila bag'rikenglikning umuminsoniy qadriyati, uning tarixiy shakli yoki tipi, milliyligi yoki diniyligidan qat'iy nazar shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllanishiga zamin qo'yadi. Oila atamasining ijtimoiy fenomenologik talqini milliy-diniy bag'rikenglikning uyg'unligini ifoda etadi. Oilaviy bag'rikenglik madaniyati har bir oilaning geografik yashash mintaqasi, turar-joyi(shahar yoki qishloq), davlatning ijtimoiy taraqqiyoti (sivilizatsiyalashgan yoki rivojlanayotgan), oiladagilarning kasb-kori, demografik shakli, (bir necha avlodning birligini, serfarzand yoki kamfarzand, oilada qizlar yoki o'g'il bolalardan iborat ekanligi) kabi omillar bilan bog'liqdir.

2. Bag'rikenglikning oilaviy qadriyati tarixiylik tamoyiliga tayanadi. O'zbekning an'anaviy oilasida ijtimoiy moddiy turmush shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mehr-oqibat, o'zaro hamkorlik, saxovatpeshalik, murosayu-madora, o'zaro kelishuv-maslahat, nizo va mojarolarni hal etishda sabr toqatlilik ming yillik yashash odad va ko'nikmalari asosida axloqiy meyoriylik jihatida rasmiylashgan. Shu bilan birga islomgacha bo'lgan diniy qarashlar va musulmonlik g'oyasi oiladagi ijtimoiy muhit va oilalararo aloqalarni diniy qonunlar bilan me'yorlashtirib yuridik tus bergen, jamiyatning milliy-diniy tomondan ijtimoiy nazaratiga olgan. Shu boisdan, davlatning oilaviy-madaniy turmushiga e'tibor berishi, globalizatsiya jarayonlarida oilaning muqaddas ma'naviy qadriyatlarini saqlab qolish g'arbning salbiy ta'siridan oilaviy muhofaza immunitetini shakllantirish dasturini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

3. O'zbekiston Respublikasida demokratik yangilanish va mamlakatni isloh qilishda oilaning an'anaviy, noan'aviy va egalitar shakllarini saqlanib qolishi muayyan davlatning oilaviy munosabatlarni shakllanishi bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazishiga to'g'ri keladi, ya'ni «oilaviy modernizatsiya» davlat miqyosidagi modernizatsiyaning rivojlanish tendensiyalariga hal qiluvchi ijobiy tasir etadi.

4. Bag'rikenglik-dunyodagi turli madaniyatlarni o'zini ifodalash va insonning alohidaligini himoya qilishning ma'naviy-axloqiy usuli, ijtimoiy aloqalarning xilmal-xil usullarini hurmat qilish, sabr-toqat bilan qabul qilish va to'g'ri tushunish ko'nikma va odatlari oilada qaror topadi. Oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit, bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hur fikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik turli tumanlikdagi ijtimoiy birlik va hamkorlik qilish qobiliyatidir. Bu faqat ma'naviy savob

ish emas, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj hamdir. Bag‘rikenglik madaniy shukronalik turmush tarzi, tinchlikka erishishda murosa falsafasi va ma’naviy madaniyatidir.[4.463-bet ]

5. O‘zbek oilalarida an’anaviy turmush sharoitlari o‘z mohiyatiga ko‘ra bag‘rikenglik milliy-diniy tamoyiliga qurilgan. Oiladan ota-onada o‘zaro munosabatlarda o‘zaro samimiy mehr-muhabbatga asoslangan ijtimoiy hamkorlikka, tenglik va ijtimoiy birlikka asoslangan o‘zaro sabr-toqat, murosa falsafasiga, ota-onalar, kattalar va kichiklarning ijtimoiy bag‘rikenglik aloqalariga tayangan maishiy uyushmasidir. Shu bois shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotining jamiyatdagi muhim tarkibiy poydevoridir. O‘zbek oilalarining demografik jihatlari ham bag‘rikenglikning shakllanishida muhim manba bo‘ladiki, ularda o‘zaro mehr-muhabbat his tuyg‘ulari kamol topadi. G‘arb turmush tarzi o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan o‘zgacha turmush tarzini ifoda etadi. Shu ma’noda, o‘zbek oilalarining turmush tarzini **solishtirma bag‘rikengligi** bir-biridan ijtimoiy farqlanadi. Uning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ma’naviy-madaniy sabablari mavjud.

Bugungi global makonda, qarama-qarshiliklar, inson, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun kurash nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o‘rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Siz bilan biz yashayotgan zamonning achchiq haqiqati shundan iboratki, katta hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan yoshlarni agar sog‘lom kuchlar to‘g‘ri yo‘lga boshlamasa, g‘arazli niyatlar bilan yurgan buzg‘unchi kuchlar o‘z ortidan ergashtirib ketadi. [1. 136-bet]

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari.- Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2020
2. Vat an va millat muqaddasdir - Toshkent: Ma’naviyat, 2000, -B. 45.
3. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi // Demokratlashtirish va inson huquqlari. - 2004, -№1, -B. 7
4. Baymatov A. Tinchlik madaniyat- barqarorlikni ta’minlashning muhim omili- Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences jurnali, 2(11) 2022, B. 463
5. Baymatov Alisher Kaxramonovich “O‘zbekistonda uy-joy siyosatining milliy modelini yaratish omillari” Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 йил №6)B. 10-12